X. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

I BO'LIM. TOSHKENT VILOYATI BO'YICHA KORXONA VA TASHKILOTLAR SONI

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni
(1- iyul holatiga ko'ra, ming birlikda)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni
(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar	55 774 116,0 %
Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	49 428 117,9 %
Yangi tashkil etilgan korxonalar *(2021- yil 6 oyda)*	4 706 115,5 %

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro‘yxatdan o‘tgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)

35 734
Mas’uliyati cheklangan jamiyat

4 793
Oilaviy korxona

322
Unitar korxona

8 343
Xususiy korxona

58
Aksiyadorlik jamiyati

485
Boshqalar

Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar, ming birlik



Xususiy korxonalar, ming birlik



Mas’uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyati mas’uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1- iyul holatiga ko‘ra)



Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



Korxona va tashlilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)

Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo‘lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zarar uchun o‘zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to‘lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo‘yicha, o‘zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to‘lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o‘z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-iyun oylarida, ming birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha tarkibi
(2021- yil yanvar-iyun oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida 4 706 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Shundan, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 3 474 ta, xususiy korxonalar 350 ta, oilaviy korxonalar 665 ta, muassasalar 54 ta va boshqalar 163 tani tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar tarkibi
(2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra)



Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 9 214 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 15,6 %ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari soni ko‘payishining asosiy omili ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatda – 15,9 %ga (jami sanoatdagi ulushi 92,2 %), tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 15,4 %ga (jami sanoatdagi ulushi 5,0 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash – 5,8 %ga kamaygan (jami sanoatdagi ulushi 0,7 %) va suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 10,3 %ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %) o‘sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3 811 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 15,1 %ga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili bino va inshootlar qurishda – o‘tgan yilga nisbatan 11,8 %ga (jami qurilishdagi ulushi 52,3 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 18,0 %ga (jami qurilishdagi ulushi 7,7 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining – 19,1 %ga (jami qurilishdagi ulushi 40,0 %) o‘sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)

2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 13 949 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 26,2 %ga oshdi.

Jami savdo korxonalari va tashkilotlari soni ko‘payishining asosiy omili avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o‘tgan yilga nisbatan – 25,6 %ga (jami savdodagi ulushi 69,2 %), avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o‘tgan yilga nisbatan – 28,5 %ga (jami savdodagi ulushi 24,0 %), avtomobil va motosikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlashning o‘tgan yilga nisbatan – 23,8%ga (jami savdodagi ulushi 6,8%) o‘sishidir.



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)

- **Sog‘liqni saqlash sohasi** — **756**
- **Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda parvarishlash** — **25**
- **Yashah uchun joy bilan ta'minlagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish** — **25**

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)

338
Yashash bo‘yicha xizmatlar

3 328
Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar

2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 3 666 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 17,5 %ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar – 17,0 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 90,8 %), yashash bo‘yicha xizmatlarning – 23,4%ga (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 9,2 %) o‘sishidir.

Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni 630 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 127,0 %ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili kino – video-filmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo‘yicha xizmatlar o‘tgan yilga nisbatan – 109,5 %ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,7 %), axborot sohasidagi xizmatlar o‘tgan yilga nisbatan 149,2 %ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 15,4 %), nashriyotchilik xizmatlari o‘tgan yilga nisbatan – 110,0 %ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 17,5 %), dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo‘yicha xizmatlar – 160,0 %ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,3 %), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o‘tgan yilga nisbatan – 125,8 %ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 31,7 %), telekommunikatsiya xizmatlarining – 131,5 %ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 30,5 %) o‘sishidir.

Oilaviy korxonalar soni
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra 4 793 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 103 taga yoki 29,9 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 373 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 092 taga yoki 33,3 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 665 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 80 taga yoki 13,7 %ga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra 35 734 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 6 071 taga yoki 20,5 %ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 32 058 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 5 887 taga yoki 22,5 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 474 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 394 taga yoki 12,8 %ga ko'paygan.



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

49 376
ro'yxatdan o'tgan
- **2 539** kichik korxonalar
- **46 837** mikrofirmalar

43 382
faoliyat ko'rsatayotgan
- **2 448** kichik korxonalar
- **40 934** mikrofirmalar

4580
yangi tashkil etilgan
- **116** kichik korxonalar
- **4 464** mikrofirmalar

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Korxona va tashlilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

II BO‘LIM. TOSHKENT VILOYATIDAGI XORIJIY KAPITAL ISHTIROKIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR SONI

(2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra 1 528 tani tashkil etib, ulardan 1 391 tasi yoki 91,0 %i faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 143 taga yoki 11,5 %ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2021- yil yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 94 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)



Toshkent viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)

	Mamlakalar	Jami	*shundan:*	
			qo‘shma korxona	xorijiy korxona
1	Rossiya Federatsiyasi	**207**	122	85
2	Qozog‘iston Respublikasi	**134**	74	60
3	Tojikiston Respublikasi	**22**	12	10
4	Ukraina Respublikasi	**16**	7	9
5	Qirg‘iz Respublikasi	**13**	8	5
6	Ozarbayjon Respublikasi	**10**	4	6
7	Belarus Respublikasi	**6**	5	1
8	Armaniston Respublikasi	**8**	3	5
9	Latviya Respublikasi	**6**	4	2
10	Moldova Respublikasi	**2**	1	1

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning davlatlar esimida soni

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)

	2017- y.	2018- y.	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Jami	**555**	**695**	**987**	**1 248**	**1 391**
shu jumladan:					
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	47	62	89	117	133
sanoat	350	434	576	684	713
qurilish	13	15	34	57	72
savdo	66	101	151	221	267
tashish va saqlash	14	16	18	22	26
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	10	12	15	26	30
axborot va aloqa	1	1	3	3	6
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	4	7	10	12	17
boshqa turlar	50	47	91	106	127

III BO‘LIM. HUDUDLAR BO‘YICHA KORXONA VA TASHKILOTLAR TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni
(2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)

	Jami	*shundan:*	
		qo‘shma korxona	*xorijiy korxona*
Toshkent viloyati	**1391**	**672**	**719**
Oqqo‘rg‘on tumani	16	5	11
Ohangaron tumani	80	33	47
Bekobod tumani	9	7	2
Bo‘stonliq tumani	57	30	27
Bo‘ka tumani	12	4	8
Quyi Chirchiq tumani	46	24	22
Zangiota tumani	168	74	94
Yuqori Chirchiq tumani	118	55	63
Qibray tumani	150	76	74
Parkent tumani	25	13	12
Piskent tumani	20	10	10
O‘rta Chirchiq tumani	94	41	53
Chinoz tumani	20	10	10
Yangiyo‘l tumani	80	29	51
Toshkent tumani	80	53	27
Nurafshon shahri	62	27	35
Olmaliq shahri	47	14	33
Angren shahri	96	63	33
Bekobod shahri	26	16	10
Ohangaron shahri	48	22	26
Chirchiq shahri	82	50	32
Yangiyo‘l shahri	55	16	39

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni
(2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida soni
(2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamidagi ulushi Zangiota tumanida 12,5 %, Qibray tumanida 10,0 %, Toshkent tumanida 7,0 %, Angren shahrida 6,1 %, Yangiyo‘l tumanida 5,9 %, Chirchiq shahrida 5,8 %, O‘rta Chirchiq tumanida 4,7 %, Yuqori Chirchiq tumanida 5,1 %, Olmaliq shahrida 4,3 %, Parkent tumanida 4,4 %, Bo‘stonliq tumanida 4,1 %, Yangiyo‘l shahrida 3,3 %, Quyi Chirchiq tumanida 3,2 %, Bo‘ka tumanida 3,0 %, Bekobod shahrida 3,0 %, Ohangaron tumanida 2,9 %, Piskent tumanida 2,7 %, Nurafshon shahrida 2,6 %, Ohangaron shahrida 2,4 %, Chinoz tumanida 2,4 %, Bekobod tumanida 2,4% va Oqqo‘rg‘on tumanida 2,2 %ni tashkil etadi.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarnig qo‘shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi
(2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, jamiga nisbatan ulushi %da)



2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning uchinchi muhim yo‘nalishi – **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni o‘sib borishi, eng avvalo mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni
(2021- yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida ko‘riladigan bo‘lsa, asosan O‘rtachirchiq (14,3 %), Oqqo‘rg‘on (6,2 %), Bo‘stonliq (12,8 %), Yuqorichirchiq (6,6 %), Zangiota (5,4 %), Yangiyo‘l (3,3%), Parkent(11,0), Qibray (6,5 %), Toshkent (6,5 %), Chinoz (1,5 %) tumanlari va Nurafshon (6,0 %) shahri yuqori ulushga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(2021- yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)





Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma’lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan - ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan - ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi - ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlar bazasi asosida 2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.